

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**SAFIULLINA ASIYA KAMIL QIZI**

**G‘O‘ZANING *G. HIRSUTUM* L. TURICHI XILMA-XILLIKLARI  
MOLEKULAR FILOGENIYASI HAMDA ULARNING QIMMATLI  
XO‘JALIK BELGILARINI BAHOLASH**

**03.00.09 – Umumiy genetika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT–2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Safiullina Asiya Kamil qizi**

G‘o‘zaning *G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklari molekulyar filogeniyasi hamda ularning qimmatli xo‘jalik belgilarini baholash..... 3

**Сафиуллина Асия Камилловна**

Молекулярная филогения внутривидового разнообразия *G. hirsutum* L. и оценка их хозяйственно ценных признаков..... 21

**Safiullina Asiya Kamil qizi**

Molecular phylogeny of intraspecific diversity of *G. hirsutum* L. and evaluation of their economically valuable traits..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI  
INSTITUTI**

**SAFIULLINA ASIYA KAMIL QIZI**

**G‘O‘ZANING *G. HIRSUTUM* L. TURICHI XILMA-XILLIKLARI  
MOLEKULYAR FILOGENIYASI HAMDA ULARNING QIMMATLI  
XO‘JALIK BELGILARINI BAHOLASH**

**03.00.09 – Umumiy genetika**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT–2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1277 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.genetika.uz](http://www.genetika.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ernazarova Dilrabo Qo'shboqovna**  
biologiya fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:**

**Matniyazova Hilola Xudoybergenovna**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Xusenov Naim Nutfulloyevich**  
biologiya fanlari falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Paxta seleksiyasi urug'chiligi va yetishtirish  
agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_\_\_» iyun kuni soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz qo'rg'oni 266 - uy, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90; e-mail: [igebr@academy.uz](mailto:igebr@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-Yuz qo'rg'oni 266 - uy, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 264-23-90; faks: (+99871) 264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Narimanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, q/x.f.d., professor

**I.Dj. Kurbanbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

**I.T. Qaxxorov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, q/x.f.d., professor

## Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda *Gossypium* L. turkumi turlarining genetik xilma-xilligi va o‘zaro filogenetik munosabatlarini o‘rganish dolzarb muammo hisoblanadi. Bu xilma-xillikni o‘rganish nafaqat turlararo va turichi evolyutsion aloqalarni aniqlashga, balki seleksiya uchun foydali bo‘lgan genetik resurslarni aniqlash va ulardan maqsadli foydalanishga imkon beradi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda istiqbolli g‘o‘za navlarini genetik va seleksion tadqiqotlarda qo‘llashda *Gossypium* L. turkumining evolyutsiya, sistematikasi va filogeniyasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Xususan, *Magniobracteolata* Tod. seksiyasi *G. hirsutum* L. turiga mansub shakllarning qimmatli xo‘jalik belgilari baholanib, yovvoyi, ruderal, madaniy tropik hamda madaniy shakllardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda *Gossypium* L. turkumi turlarining morfologik va qimmatli xo‘jalik belgilari shuningdek, zararkunda hashorotlar va tashqi muhitning stress omillariga chidamlilik xususiyatlari nuqtai nazaridan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, *G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklarining genetik imkoniyatlaridan o‘rgangan holda ushbu ijobiy xususiyatlarni madaniy navlarning genotipiga o‘tkazish borasidagi izlanishlar soha vakillari tomonidan alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi sohalarini tobora rivojlantirish, seleksiya jarayonlarini jadallashtirish va agrar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga mamlakatimiz tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, bugungi kungacha seleksiya sohasida erishilgan yutuqlar paxtachilikning genetik va seleksion yo‘nalishlarini tobora rivojlantirish natijasida katta natijalarga erishilmoqda. Xususan, filogenetik jihatdan uzoq va yaqin bo‘lgan g‘o‘za navlarini seleksiya jarayonlariga jalb qilish orqali istiqbolli ilmiy va amaliy yutuqlar qo‘lga kiritildi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan yangi navlarni yaratish”<sup>1</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, *G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklarining sistematikada joylashgan o‘rnini, filogenetik munosabatlarini o‘rganish, turichi duragaylash natijasida chatishuvchanlik ko‘rsatkichlari va ulardagi morfologik va qimmatli xo‘jalik belgilari aniqlash asosida yuqori qimmatli xo‘jalik belgilariga ega duragaylar olish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-sonli “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, 2020 yil 13 maydagi 282-sonli “Qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini sinash markazi faoliyatini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi o‘simliklari turlarining milliy genbankini yaratish to‘g‘risida” gi qarorlari

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»

hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** *Gossypium* L. turkumi turlarining kelib chiqishi, geografik tarqalishi, sistematikada joylashgan o'rni, filogenetik munosabatlari o'rganish bo'yicha tadqiqotlar xorijlik olimlar: J.E. Endrizzi (1985), P.A. Fryxell (1992), C.L. Brubaker va boshq., (1999), A. Dongre (2004), J.F. Wendel (2010), M. Grover (2014), N.Tabbasam va boshq., (2014), B. Atasagun (2018), T. Zhou va boshq., (2022) tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekistonda F.M. Mauer (1954), A.A. Abdullaev, V.P. Klyat (2006), I.Yu. Abdurahmonov (2008, 2016), F.U. Rafieva (2017), F.N. Kushanov va boshq., (2021, 2022), D.Q. Ernazarova (2023) kabi olimlar tomonidan g'o'zaning madaniy tetraploid va diploid turlarida turichi va turlararo duragaylash asosida morfologik va qimmatli xo'jalik belgilariga ega noyob g'o'za shakllarini olish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Biroq, yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqot natijalari *G. hirsutum* L. yovvoyi, ruderal, madaniy tropik va madaniy shakllarini var. *latifolium*, var. *religiosum*, var. *morilli*, var. *richmondii*, var. *yucatanense* shakllari bilan turichi chatishtirish va zamonaviy molekulyar-genetik usullar yordamida o'zaro filogenetik munosabatlarini aniqlash, ulardagi qimmatli xo'jalik belgilariga ega noyob shakllarni olish bo'yicha to'laqonli ma'lumotlarni bera olmaydi. Shu sababli, *G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklarida klassik va molekulyar-genetik usullar asosida filogenetik munosabatlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Gossypium L. turkumining dunyoviy bioxilma-xilligi genetik potensialini o'rganish va filogeniyaning klassik usullari asosida muhitning biotik va abiotik ta'sirlariga bardoshli donorlar yaratish" mavzusidagi davlat byudjetidan moliyalashtirilgan ilmiy tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** g'o'zaning *G. hirsutum* L. turiga mansub ayrim shakllari turichi filogenetik darajasini aniqlash, ulardagi qimmatli xo'jalik belgilarini baholash hamda g'o'za seleksiyasi uchun noyob boshlangich manbalar olishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

DNK markerlari asosida ota-ona namunalari o'rtasidagi genetik polimorfizمنى o'rganish;

polimorf DNK markerlari asosida *G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklarining filogenetik munosabatlariga oydinlik kiritish;

g'o'zaning *G. hirsutum* L. turiga mansub yovvoyi, ruderal, madaniy tropik va madaniy shakllarida morfologik hamda qimmatli xo'jalik belgilarini o'rganish;

namunalarni o'zaro duragaylash va turichi F<sub>1</sub> duragaylarini olish;

F<sub>1</sub> va ayrim F<sub>2</sub> avlod duragaylarini ota-ona shakllariga nisbatan qiyosiy sitogenetik tahlil qilish;

ota-ona shakllari va duragay avlod (F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub>) o'simliklarining *Fusarium oxysporum* f.sp. *vasinfectum* shtammiga chidamliligini baholash;

g'o'zada qimmatli xo'jalik belgilarni boshqarishda ishtirok etuvchi QTL regionlarning xromosomadagi pozitsiyasini aniqlash;

F<sub>2</sub> avlod duragaylari orasidan qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan rekombinant donorlarni ajratib olish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida g'o'zaning *G. hirsutum* L. kenja turlaridan yovvoyi ssp. *mexicanum* shakli, ruderal shakl ssp. *punctatum*, madaniy tropik ssp. *paniculatum* va ssp. *euirsutum* (Omad va Baht navlari) shakllari va var. *latifolium*, var. *religiosum*, var. *morilli*, var. *richmondii* va var. *yucatanense* turichi xilma-xilliklari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** genetik polimorfizm, ayrim g'o'za xilma-xilliklarining sistematik holati, filogenetik munosabatlari hamda ulardagi qimmatli xo'jalik belgilarini nazorat qiluvchi miqdoriy belgilar regionlari (QTL) tashkil etgan.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada g'o'za genetikasi va seleksiyasining an'anaviy usullaridan (fenologik kuzatuv, turichi duragaylash, qiyosiy morfologiya, statistik tahlil, genetik tahlil), molekulyar-genetik usullaridan genom DNK ajratish, gel-elektroforez, PZR tahlillari, genotiplash, genealogic tahlillar), genomika va bioinformatikaning zamonaviy usullaridan *in silico* PZR, NCSS12, BLAST, AUGUSTUS dasturlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor 70 ta mikrosatellit (SSR) markerlar asosida g'o'zaning *G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklari o'rtasidagi munosabatlarini oydinlashtiruvchi filogenetik shajara ishlab chiqilgan;

ota-ona shakllarida chatishuvchanlik darajasining pastligi, ammo duragay ko'saklardagi to'liq urug' tugulish darajasining yuqorligiga asoslanib, evolyutsion rivojlanish davrida kenja turlar va turichi xilma-xilliklarining geografik hududlar bilan alohida izolyatsiya qilinganligi isbotlangan;

var. *yucatanense* shaklining duragaylanish darajasining boshqa shakllarga nisbatan pastligi old zigotik reproduktiv alohidalovchi mexanizmning mavsumiy alohidalanishi bilan isbotlangan;

laboratoriya sharoitida *Fusarium oxysporum* f.sp. *vasinfectum* zamburug'iga var. *yucatanense* o'ta, var. *religiosum* esa o'rtacha, F<sub>2</sub> var. *religiosum* × ssp. *euirsutum* Omad navi va uning retsiprok duragay o'simliklari o'ta va o'rtacha darajada chidamli ekanligi aniqlangan;

F<sub>2</sub> var. *religiosum* × ssp. *euirsutum* Omad navi va uning retsiprok duragay kombinasiya o'simliklari orasidan ertapishar, bitta ko'sakdagi paxta vazni, tola uzunligi va chiqimi, 1000 dona chigit vazni kabi yuqori qimmatli xo'jalik belgilari hamda FOV shtammiga chidamli noyob shakllar ajratib olingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

*G. hirsutum* L. yovvoyi, ruderal, madaniy tropik va madaniy shakllarni turichi

xilma-xilliklar bilan o'zaro chatishtirishlar asosida 37 ta turichi duragay kombinasiyalar olingan;

ota-ona shakllari o'rtasidagi filogenetik munosabatlarni o'rganish maqsadida 177 ta mikrosatellit markerlari asosida tolaning sifat ko'rsatkichlari va qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha ota-ona namunalari o'rtasida filogenetik munosabatlarni aks ettiruvchi dendogramma ishlab chiqilgan;

F<sub>2</sub> (var. *religiosum* × ssp. *ehirsutum* Omad navi) duragay kombinasiyasidan ajratib olingan A-18, A-22 shakllari, F<sub>2</sub> (ssp. *ehirsutum* Omad navi × var. *religiosum*) duragay kombinasiyasidan C-126, C-156 shakllari ertapisharlik (vegetatsiya davr davomiyligi 111,0-115,0 kun), bitta ko'sakdagi paxta vazni 5,1-7,0 g, tola uzunligi 24,3-27,0 mm, tola chiqimi 33,8-35,2%, 1000 dona chigit vazni 80,0-120,0 g, *Fusarium oxysporum* f.sp. *vasinfectum* shtammiga o'ta va o'rtacha chidamli rekombinant donorlar ajratib olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** izlanishlarda klassik (turichi duragaylash) va molekulyar-genetik usullardan qo'llanilganligi, statistik tahlillar Dospexov (1985) uslubi asosida qayta ishlanganligi, tadqiqotda qo'llanilgan uslub va ilmiy yondoshuvlar nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, olingan natijalar xorijlik va mahalliy olimlar tajribalari bilan solishtirilganligi, dissertatsiya ishi xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilganligi hamda nufuzli ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *G. hirsutum* L. yovvoyi, ruderal, madaniy tropik, madaniy shakllarni var. *latifolium*, var. *religiosum*, var. *morilli*, var. *richmondii* va var. *yucatanense* turichi xilma-xilliklari bilan turichi duragaylanish va molekulyar uslablar asosida o'zaro filogenetik munosabatlariga oydinlik kiritilganligi, tadqiqot ob'ektlarining morfologik belgi va xususiyatlari hamda qimmatli xo'jalik belgilarining baholanganligi, turichi xilma-xilliklarning o'zaro yangi filogenetik tizimi tuzilganligi va ularning sistematik o'rniga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, yuqori qimmatli xo'jalik belgilariga ega duragay shakllarning aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turichi xilma-xilliklarining o'zaro duragaylanishi natijasida o'ziga xos belgi va xususiyatlardan; ertapisharlik, bitta ko'sakdagi paxta vazni, tola chiqimi kabi yuqori ko'rsatkichlarga ega va FOV shtammiga o'ta va o'rtacha chidamli bo'lgan turichi duragaylar olingan. Ushbu duragay shakllar genetika va seleksiya tadqiqotlarda boshlang'ich manbalar F<sub>2</sub> (var. *religiosum* × ssp. *ehirsutum* Omad navi), (ssp. *ehirsutum* Omad navi × *G. hirsutum* var. *religiosum*) sifatida foydalanish uchun tavsiya etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** G'o'zaning *G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklari molekulyar filogeniyasi hamda ularning qimmatli xo'jalik belgilarini baholash bo'yicha olingan natijalar asosida:

F<sub>2</sub> (var. *religiosum* × ssp. *ehirsutum* Omad navi) duragay kombinasiyasidan ajratib olingan A-18, A-22 shakllari, F<sub>2</sub> (ssp. *ehirsutum* Omad navi × var.

*religiosum*) duragay kombinasiyasidan C-126, C-156 shakllar urug‘lari O‘zR FA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining “Noyob ob’ekt” g‘o‘za genofondi kolleksiyasiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 6-noyabrdagi № 4/1255-2473 son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu F<sub>2</sub> duragay kombinasiyalar “G‘o‘za genofondi” noyob ob’ektini yanada boyitgan va kelgusida genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish imkonini bergan;

tadqiqotlar natijasida samarali deb topilgan BNL0226, Gh064, Gh132, Gh110, BNL1421, Gh591, BNL1694, HAU0091, HAU1314, BNL1231, BNL1604, DPL0131, HAU2768, DPL0131, HAU1371 kabi SSR markerlari “Yovvoyi Avstraliya turlarining afro-osiyo g‘o‘zalari turichi xilma-xilliklari bilan o‘zaro molekulyar-filogenetik munosabatlarini va qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida g‘o‘zaning filogenetik munosabatlarini va qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganish maqsadida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 20-maydagi № 4/1255-1238 son ma’lumotnomasi). Natijada, *Gossypium* L. turkumi genotiplari o‘rtasidagi genetik polimorfizm darajasini aniqlash va molekulyar markerlar yordamida o‘rganilayotgan tur va shakllarning filogenetik munosabatlariga oydinlik kiritish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalari chop etish tavsiya qilingan jurnallarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 117 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va hozirgi vaqtdagi ahamiyati, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, ob’ekti va uning predmeti, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatilgan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan bo‘lib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar ochib berilgan.

Dissertatsiyaning «*Gossypium* L. turkumining evolyusiya, filogeniya va sistematikasi: o‘rganish tarixi, geografik tarqalishi va iqtisodiy ahamiyati» deb nomlangan birinchi bob uchta bo‘limdan iborat bo‘lib, ushbu bobda dissertatsiya ishiga oid chet el va respublikamiz olimlarining *Gossypium* L. turkumi turlarining kelib chiqishi, o‘zaro filogenetik munosabatlari va geografik tarqalishi, ularning

hozirgi vaqtdagi iqtisodiy ahamiyati, *G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklarning kelib chiqish markazlari va sistematikada joylashgan o'rni, morfologiyasi hamda qimmatli xo'jalik belgilarining an'anaviy va molekulyar genetik usullar asosida o'rganish borasidagi ilmiy ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan holda yoritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tadqiqot o'tkazilgan joy va sharoiti, manbai va uslublari”** deb nomlangan va besh bo'limdan iborat bo'lib, tajriba o'tkazilgan joy va sharoitlari, tadqiqot obyektlari, ularning kelib chiqish markazlari, tadqiqotda foydalanilgan klassik va molekulyar, sitogenetik va mikologik usullar, bioinformatik dasturlar, laboratoriya va dala sharoitida tadqiqot ishlarini amalga oshirish borasidagi ishlar, bioinformatik va statistik tahlillar bayon qilingan. O'tkazilgan tajribalar 2022-2024 yillar mobaynida Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida olib borilganligi keltirilgan.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“«*G. hirsutum* L. turichi xilma-xilliklarining morfologik xususiyatlari hamda o'zaro duragaylanish ko'rsatkichlari»** deb nomlanib, ota-ona va  $F_2$  duragay kombinatsiyalarning morfologik va qimmatli xo'jalik belgilari,  $F_0$  va  $F_1$ - $F_2$  duragay avlodlarning chatishuvchanlik va to'liq urug' tugulish foizlari, vegetatsiya davri davomiyligi, bundan boshqa qimmatli xo'jalik belgilaridan bitta ko'sakdagi paxta vazni, tola uzunligi va chiqimi, hosildorlik ko'rsatkichlarining irsiylanish va o'zgaruvchanlik darajalari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Bobning birinchi bo'limida boshlang'ich namunalari va duragay avlodlarning morfologik tavsifi keltirilgan bo'lib,  $F_2$  (var. *religiosum* × ssp. *eu-hirsutum* Omad navi) va (ssp. *eu-hirsutum* Omad navi × var. *religiosum*) duragay shakllarining morfologik hamda qimmatli xo'jalik belgilaridan tezpisharlik, bitta ko'sakdagi paxta vazni, tola uzunligi va chiqimi, 1000 dona chigit vazni kabi belgilari haqida ma'lumotlar qayd etilgan.

Bobning ikkinchi bo'limida *G. hirsutum* L. kenja tur va turichi xilma-xilliklari bilan o'zaro duragaylanishi natijasida olingan  $F_0$  duragay ko'saklar va  $F_1$ - $F_2$  duragay avlodlarda chatishuvchanlik va to'liq urug' tugulishining foiz ko'rsatkichlari keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra,  $F_1$  o'simliklari orasidan  $F_1$  (ssp. *mexicanum* × var. *latifolium*) (86,0%) va (var. *richmondii* × ssp. *paniculatum*) (84,9%), (ssp. *eu-hirsutum* Omad navi × var. *religiosum*) (89,5%) duragay kombinatsiyalarida to'liq urug' tugulish ko'rsatkichlari ota-ona namunalariга nisbatan yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.  $F_2$  (var. *religiosum* × ssp. *eu-hirsutum* Omad navi) duragay o'simliklarida to'liq urug' tugulish ko'rsatkichlari 91,7% da nisbatan yuqori bo'lib, o'zgaruvchanlik amplitudasi 71,4-100,0% ga, belgining irsiylanish darajasi  $h^2=0,20$  ni tashkil etdi. Retsiprok  $F_2$  (ssp. *eu-hirsutum* Omad navi × var. *religiosum*) kombinatsiyada o'rtacha 83,3% da, o'zgaruvchanlik amplitudasi 75,7-93,75% ga teng, belgining ikkinchi avlodlarda irsiylanishi  $h^2=0,33$  namoyon bo'ldi.

Bobning uchinchi bo'limi ota-ona namunalari va ularning duragaylanishi natijasida olingan  $F_1$ - $F_2$  o'simliklarda vegetatsiya davri davomiyligi belgisining irsiylanish ko'rsatkichlari o'rganilgan. Vegetatsiya davrining davomiyligi yovvoyi

ssp. *mexicanum* (200,1 kun) shakli kechpishar, madaniy ssp. *euhiirsutum* Omad (111,3 kun) va Baht shakllarida (115,1) tezpishar shakllar sifatida qayd etildi. F<sub>1</sub> o'simliklaridan o'suv davrining davomiyligi var. *yucatanense* × ssp. *mexicanum* ( $hp=-1,72$ ), var. *religiosum* × ssp. *euhiirsutum* Omad navi ( $hp=-1,83$ ), ssp. *euhiirsutum* Omad navi × var. *religiosum* ( $hp=-1,87$ ) ota-ona namunalariga nisbatan tezpisharligi aniqlandi. F<sub>2</sub> duragay shakllari orasidan o'suv davri davomiyligi 111-115,0 kunlar oralig'iga teng bo'lgan tezpishar shakllar ajratib olindi (1 rasm).



**1- rasm.** *G. hirsutum* L. kenja tur va turichi xilma-xilliklari va F<sub>1</sub> duragay avlodlarda vegetatsiya davrining davomiyligi (kun). 1- ssp. *mexicanum*; 2-ssp. *punctatum*; 3- ssp. *paniculatum*; 4- ssp. *euhiirsutum* Omad navi; 5- ssp. *euhiirsutum* Baht navi; 6- var. *latifolium*; 7- var. *religiosum*; 8- var. *morilli*; 9- var. *richmondii*; 10- var. *yucatanense*; 11- var. *latifolium* × ssp. *mexicanum*, 12- ssp. *mexicanum* × var. *latifolium*; 13- var. *religiosum* × ssp. *punctatum*; 14- ssp. *punctatum* × var. *religiosum*; 15- var. *morilli* × ssp. *paniculatum*; 16- ssp. *paniculatum* × var. *morilli*; 17- var. *richmondii* × ssp. *paniculatum*; 18- ssp. *paniculatum* × var. *richmondii*; 19- var. *yucatanense* × ssp. *punctatum*; 20- var. *yucatanense* × ssp. *mexicanum*; 21- var. *religiosum* × ssp. *euhiirsutum* Omad navi; 22- ssp. *euhiirsutum* Omad navi × var. *religiosum*.

Bobning to'rtinchi bo'limida boshlang'ich manbalar va ularni o'zaro retsiprok duragaylanishi natijasida olingan F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> o'simliklarida bitta ko'sakdagi paxta vazni belgisi ko'rsatkichlari keltirilgan. Ko'sak vazni bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar madaniy shakllar ssp. *euhiirsutum* («Omad va Baht») navlarida o'rtacha 5,8 va 5,7 g tashkil etsa, var. *yucatanense* (1,46 g) shakli esa ko'saklarining maydaligi bilan ajralib turdi. Bunda F<sub>1</sub> (var. *religiosum* × ssp. *euhiirsutum* Omad navi) kombinatsiyasida bitta ko'sakdagi paxta vazni o'rtacha 5,4 g ni tashkil qildi, o'zgaruvchanlik darajasi 3,9-7,2 g oralig'iga teng. Belgining F<sub>1</sub> avlodlarda irsiylanish koeffitsienti  $hp=0,38$  ga teng bo'lib, to'liqsiz dominantlik holatidagi irsiyanganligi ma'lum bo'ldi. F<sub>1</sub> (ssp. *euhiirsutum* Omad navi × var. *religiosum*) kombinatsiyasida esa bitta ko'sakdagi paxtaning vazni o'rtacha 5,0 g ni tashkil etib, o'zgaruvchanlik darajasi 4,3-6,2 g oralig'ini o'z ichiga oldi. Birinchi avlod duragaylarida belgining irsiylanish koeffitsienti salbiy qisman dominantlik tarzida  $hp=-0,23$  tashkil etdi. Var. *yucatanense* × ssp. *mexicanum* duragay kombinatsiyasida esa paxta vazni o'rtacha 3,1 g teng bo'lib, variatsiya koeffitsenti


17,9% ga teng, dominantlik koeffitsienti  $hp=0,60$  tashkil qildi. Bitta ko'sakdagi paxta vazni birinchi avlod duragaylarida asosan qisman, to'liq, o'ta dominantlik tarzida irsiylangan.

Tadqiqotlar davomida  $F_2$  duragay avlodlarda bitta ko'sakdagi paxta vazni belgisining avlodan-avlodga berilish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Unga ko'ra,  $F_2$  (var. *religiosum* × ssp. *euhiirsutum* Omad navi) va  $F_2$  (ssp. *euhiirsutum* Omad navi × var. *religiosum*) duragay kombinatsiyalarida bitta ko'sakdagi paxta belgisi bo'yicha o'zgaruvchanlik darajasi 3,1-7,0 g ga teng bo'lgan 4 ta sinfga ajralgan. Duragay avlodlarda bitta ko'sakdagi paxta vazni o'rtacha 4,6 va 4,8 g, belgining avlodan-avlodga berilishi  $h^2=0,48$  va  $h^2=0,67$  teng (2 rasm).



**2-rasm.** *G. hirsutum* L. kenja tur va turichi xilma-xilliklari va  $F_1$  duragay avlodlarda bitta ko'sakdagi paxta belgisining irsiylanishi; 1- ssp. *mexicanum*; 2-ssp. *punctatum*; 3- ssp. *paniculatum*; 4- ssp. *euhiirsutum* Omad navi; 5- ssp. *euhiirsutum* Baht navi; 6- var. *latifolium*; 7- var. *religiosum*; 8- var. *morilli*; 9- var. *richmondii*; 10- var. *yucatanense*; 11- var. *latifolium* × ssp. *mexicanum*, 12- ssp. *mexicanum* × var. *latifolium*; 13- var. *religiosum* × ssp. *punctatum*; 14- ssp. *punctatum* × var. *religiosum*; 15- var. *morilli* × ssp. *paniculatum*; 16- ssp. *paniculatum* × var. *morilli*; 17- var. *richmondii* × ssp. *paniculatum*; 18- ssp. *paniculatum* × var. *richmondii*; 19- var. *yucatanense* × ssp. *punctatum*; 20- var. *yucatanense* × ssp. *mexicanum*; 21- var. *religiosum* × ssp. *euhiirsutum* Omad navi; 22- ssp. *euhiirsutum* Omad navi × var. *religiosum*.


Bobning beshinshi bo'limida  $F_1$ - $F_2$  duragay avlodlari va ularning ota-ona namunalari tola uzunligi belgisi bo'yicha tadqiqotlar tahlili olib borilgan. Ota-ona namunalari orasidan tolasining uzunligi o'rtacha 31,2 va 33,2 mm tashkil etdi, qisqa tolalilarga var. *yucatanense* (17,0 mm) va var. *morilli* (17,4 mm), var. *richmondi* (20,6 mm) shakllarida qayd etildi. Ota-ona namunalari nisbatan tola uzunligisining o'ta dominantlik tarzida irsiylanishi  $F_1$  (ssp. *mexicanum* × var. *latifolium*) ( $hp=1,36$ ), belgining qisman irsiylanishi esa  $F_1$  (var. *latifolium* × ssp. *mexicanum*) ( $hp=0,86$ ) duragay kombinatsiyasida qayd etildi.  $F_1$  (var. *religiosum* × ssp. *euhiirsutum* Omad navi) va  $F_1$  (ssp. *euhiirsutum* Omad navi × var. *religiosum*) duragay kombinatsiyalari tolasining uzunligi o'rtacha 31,6 va 32,2 mm ni tashkil etdi (3 rasm).



**3-rasm.** Turichi F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragay avlodlari va ularning ota-ona namunalarda tola uzunligi (mm) belgisining irsiylanishi: 1. var.*religiosum*; 2. ssp.*euhiirsutum* Omad navi; 3. (F<sub>1</sub>)var.*religiosum* × ssp.*euhiirsutum* Omad navi; 4. -(F<sub>1</sub>) ssp.*euhiirsutum* Omad navi × var.*religiosum*; 5. -(F<sub>2</sub>) var.*religiosum* × ssp.*euhiirsutum* Omad navi 6. (F<sub>2</sub>) ssp.*euhiirsutum* Omad navi × var.*religiosum*

F<sub>2</sub> duragay kombinatsiyalarda tola uzunligi belgisining o'zgaruvchanlik darajalari bo'yicha 7 ta sinfga ajraldi Ikkinchi avlod duragaylarda belgining avloddan-avlodga irsiylanish ko'rsatkichi  $h^2=0,44$  va  $h^2=0,42$  tashkil etdi.

Dissertatsiya ishining oltinchi bo'limida boshlang'ich namunalari va ularning duragaylanishi natijasida olingan F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> duragay kombinatsiyalarda tola chiqimi belgisining irsiylanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan (4 rasm).



**4-rasm.** F<sub>1</sub> duragay avlodlarda tola chiqimi belgisining irsiylanishi  
 1- var. *latifolium* × ssp. *mexicanum*, 2- ssp. *mexicanum* × var. *latifolium*; 3- var. *religiosum* × ssp. *punctatum*; 4- ssp. *punctatum* × var. *religiosum*; 5- var. *morilli* × ssp. *paniculatum*; 6- ssp. *paniculatum* × var. *morilli*; 7- var. *richmondii* × ssp. *paniculatum*; 8- ssp. *paniculatum* × var. *richmondii*; 9- var. *yucatanense* × ssp. *punctatum*; 10- var. *yucatanense* × ssp. *mexicanum*; 11- var. *religiosum* × ssp. *euhiirsutum* Omad navi; 12- ssp. *euhiirsutum* Omad navi × var. *religiosum*.

*G. hirsutum* L. kenja turlari va turichi xilma-xilliklari o'rtasida tola chiqimi belgisi 21,5% dan 40,7% oraliqdagi ko'rsatkichlarni namoyon qildi. Ulardan


madaniy shakl Omad navida tola chiqimi o'rtacha 40,7% ko'rsatkichni qayd etib, o'zgaruvchanlik darajasi 34,1-43,0% oralig'iga teng. Nisbatan past ko'rsatkich var. *yucatanense* shaklida 21,5% ni tashkil etdi. F<sub>1</sub> duragay kombinatsiyalar ichidan var. *religiosum* × ssp. *ehirsutum* Omad navi kombinatsiyada 34,0% ni, o'zgaruvchanlik darajasi 30,7-36,7% oralig'iga teng bo'lib, bu esa o'z navbatida variatsiya koeffitsientining 6,08% ga oshishiga olib keldi. Retsiprok duragay kombinatsiyada tola chiqimi o'rtacha 37,4% da, variatsiya koeffitsienti 5,73% ga teng. Ushbu kombinatsiyalarda dominantlik koeffitsienti  $hp=-0,81$  va  $hp=0,10$  to'liqsiz tarzida irsiylanganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu kombinatsiyalarni o'z-o'ziga chatishtirish natijasida olingan F<sub>2</sub> (var. *religiosum* × ssp. *ehirsutum* (Omad navi) duragay o'simliklarida tola chiqimi o'rtacha 33,8% ni, retsiprok kombinatsiyada 34,0% da F<sub>1</sub> va boshlang'ich namunalarga nisbatan belgining nisbatan pasayganligi ma'lum bo'ldi. F<sub>2</sub> (var. *religiosum* × ssp. *ehirsutum* (Omad navi) duragay kombinatsiyasidan tola chiqimi 35,1-37,0% oralig'ida 20 ta, 37,1-39,0% tola chiqimiga teng 4 ta shakllar ajratib olindi. Retsiprok duragay kombinatsiyasida 35,1-37,0% tola chiqimiga teng 12 ta, 37,1-39,0% 13 ta shakl tadqiqotlarni davom ettirish asosida ajratib olindi.

Bobning yettinchi bo'limida boshlang'ich ashyolarda hosildorlik ko'rsatkichlari natijalari keltirilgan. Unga ko'ra, ota-ona namunalari orasidan madaniy shakllarda ssp. *ehirsutum* Omad navi bitta tup o'simlikdagi ko'saklar soni bo'yicha yuqori (28 dona), yovvoyi var. *yucatanense* va var. *morilli* shakllarida (10 dona) esa hosildorligi kam ekanligi ma'lum bo'ldi. Turichi xilmaxilliklarini o'zaro chatishtirish asosida olingan duragay kombinatsiyalarda bitta tupdagi ko'saklar soni bo'yicha to'liq va to'liqsiz, o'ta dominantlik holatda irsiylanish ko'rsatkichlari namoyon bo'ldi. F<sub>2</sub> duragay avlodlarda bitta tupdagi ko'saklar sonining irsiylanish darajasi  $h^2=0,46$  va  $h^2=0,39$  teng ekanligi ma'lum bo'ldi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Ota-ona shakllari va duragaylarida tsitogenetik tahlil hamda fuzariozli (FOV) vilt kasalligiga chidamliligini baholash ko'rsatkichlari**" deb nomlanib, 4 bo'limdan iborat. Unda sitogenetik uslublar asosida F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragay kombinatsiyalari va ularning ota-ona namunalariida chang donachalarning hayotchanligini o'rganish, F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragay kombinatsiyalari va ularning ota-ona namunalariida fuzariozli (FOV) vilt kasalligiga chidamliligini laboratoriya sharoitida baholash, boshlang'ich namunalari o'rtasidagi filogenetik munosabatlariga oydinlik kiritilgan. Bundan tashqari, bioinformatik usullar asosida ota-ona shakllarida tolaning sifat ko'rsatkichlariga javob beruvchi nomzod genlarni aniqlash bo'yicha natijalar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bo'limida boshlang'ich namunalari va ular asosida duragaylangan F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragay avlodlarda chang donachalarning hayotchanligi ko'rsatkichlari keltirilgan (5 rasm).


Dissertatsiya ishining birinchi bo'limida boshlang'ich namunalari va ular asosida duragaylangan F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragay avlodlarda chang donachalarning hayotchanligi ko'rsatkichlari keltirilgan (5 rasm).



**5-rasm.** Chang donachalarning hayotchanligi: a – var.*latifolium* (98,5%); b - (F<sub>1</sub>) *ssp.euhirsutum* Omad navi × var.*religiosum* - 96%, c- (F<sub>1</sub>) var.*latifolium* × *ssp.mexicanum* – 94,5 %; d -(F<sub>2</sub>) var.*religiosum* × *ssp.euhirsutum* Omad navi 91,9%.


Tadqiqotlar natijasiga shuni ko‘rsatdiki, ota-ona namunalarida chang donachalarning hayotchanligi ko‘rsatkichlari 95,9-98,5% da o‘zgaruvchanlik namoyon etdi. F<sub>1</sub> duragay kombinasiyalarda bu ko‘rsatkich 90,22% dan 98,5% ga teng. Chang donachalarning hayotchanligi yuqori ko‘rsatkichlari F<sub>1</sub> (*ssp. punctatum* × var. *religiosum*) duragay avlodida 98,5% qayd etilib, o‘zgaruvchanlik amplitudasi mos ravishda 98,3-98,7% ga teng. F<sub>2</sub> (var. *religiosum* × *ssp. euhirsutum* Omad navi) duragay kombinasiyasida jami 7466 chang donachalari tahlil qilindi. Ushbu kombinasiyada chang donachalarining hayotchanligi o‘rtacha 91,9% ni tashkil etdi. Variatsiya amplitudasi 73,5-96,0%, o‘zgaruvchanlik koeffitsienti 8,09% ga teng.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bo‘limida F<sub>1</sub>-F<sub>2</sub> duragay avlodlari va ularning ota-ona namunalari fuzariozli (*Fov*) vilt kasalligiga chidamliligini laboratoriya sharoitida baholandi. Bunda ota-ona namunalari orasida var. *yucatanense* – 20 % o‘ta chidamli, var. *religiosum*– 40 % shakllari *FOV* zamburug‘iga o‘rtacha darajada chidamli ekanligi aniqlandi (6 rasm).



**6-rasm.** *Fusarium oxysporum* f.sp. *vasinfectum* zamburug‘i bilan zararlangan o‘simlik bargining ko‘rinishi: 1- *ssp. punctatum*; 2- *ssp. paniculatum*; 3- var. *morilli*; 4- var. *richmondii*; 5-var. *latifolium*; 6-var. *religiosum*; 7-*ssp. mexicanum*; 8-var. *yucatanense*; 9-*ssp.euhirsutum* Omad navi; 10- *ssp.euhirsutum* Baht navi.

Qolgan namunalar vilt kasalligiga chidamsiz ekanligi aniqlandi. F<sub>1</sub> duragay kombinatsiyalarda chidamlilik xususiyatiga qarab, oʻta chidamli yoki zararlanmagan, oʻrtacha chidamli yoki kuchsiz zararlangan va oʻta chidamsiz yoki kuchli zararlangan kombinasiyalarga ajratildi (7 rasm).



